


4. PHP DA MA'LUMOTLAR TIPLARI GET VA POST



PHP tilida superglobal deb ataluvchi o'zgaruvchilar ham ishlatiladi. Ular maxsus shakllantirilgan o'zgaruvchilar bo'lib, ixtiyoriy sahnada va ixtiyoriy joyda ularga global ravishda murojaat qilish mumkin.

GLOBALS – assotsiativ massiv bo'lib, u konteksga mos va sahnaning ixtiyoriy sohasida hozirda aniqlangan barcha o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi.

SERVER – ushbu massiv, xizmatchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, ular sarlavhalar, sahnaga berish va joylashish yo'li bo'lib, ular veb server tomonidan yaratiladi. Klient (mijoz) so'rovi veb-server tomonidan taxlil qilinib, PHP server mashinaga uzatilgandan so'ng u so'rovga tegishli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan va bajarish davomida murojaat qilish mumkin bo'lgan bir necha o'zgaruvchilarni yaratadi.

GET – o‘zgaruvchilarning assotsiativ massivi bo‘lib, ular URL – parametrlar yordamida sahnaga beriluvchilardan iborat.

Familiyani kiriting:

Ismini kiriting:

So‘rov satri \$QUERY_STRING o‘zgaruvchida saqlanadi va so‘ralgan URL dagi "?" simvoldan keyingi axborotdan iborat. PHP da so‘rov satri & simvollari bo‘yicha alohida elementlarga ajratiladi, va har bir elementda "=" belgisini qidiradi. Agar "=" belgisi topilgan bo‘lsa, tenglik chap tomonidagi simvollardan iborat o‘zgaruvchini yaratadi. Quyidagi formani ko‘ramiz:

POST – o‘zgaruvchilarning assotsiativ massivi bo‘lib, ular sahnaga HTTP protocol orqali post metodi bilan uzatiladi.

Familiyani kiriting:

Ismini kiriting:

o‘zgaruvchilarning guruhi yaratilib, interpretatsiya qilinadi va \$HTTP_POST_VARS massivga joylashtiriladi.

FILES – elementlarning assotsiativ massivi bo‘lib, ular sahnaga HTTP protocol orqali POST metodi bilan yuklanadi.

COOKIE – o‘zgaruvchilarning assotsiativ massivi bo‘lib, ular foydalanuvchi kompyuteriga cookie fayllardan HTTP protokoli orqali sahnaga beriladi.

SESSION – bu assotsiativ massiv bo‘lib, u foydalanuvchi foydalanayotgan vaqtda (vaqt sessiyasida) veb saytdagi har bir sahnaga murojaat qilish imkoniyatini beradi.

REQUEST – assotsiativ massiv bo‘lib, ular ushbu tipdagi o‘zgaruvchining GET va POST larini so‘zsiz o‘zida saqlaydi.

1.5. MUSTAQIL BAJARISH UCHUN TOPSHIRIQLAR

Masala 1. PHP da o‘zingizning “*Familiya va Ismingizni*” get va post metodi yordamida chiqaring.

Masala 2. PHP da o‘zingizning “**Familiya va Ismingizni**” get va post metodi yordamida qalin ko‘rinishda chiqaring.

Masala 3. PHP da o‘zingizning “*Familiya va Ismingizni*” get va post metodi yordamida kursiv ko‘rinishda chiqaring.

Masala 4. PHP da o‘zingizning “Familiya va Ismingizni” get va post metodi yordamida tagiga chizish orqali chiqaring.

Masala 5. PHP da ushbu gapni “Men PHP dasturlash tilini o‘rganmoqchiman” post metodi yordamida chiqaring.

Masala 6. PHP da ushbu gapni “**Men PHP dasturlash tilini o‘rganmoqchiman**” post metodi yordamida qalin ko‘rinishda chiqaring.

Masala 7. PHP da ushbu gapni “*Men PHP dasturlash tilini o‘rganmoqchiman*” post metodi yordamida kursiv ko‘rinishda chiqaring.

Masala 8. PHP da ushbu gapni “Men PHP dasturlash tilini o‘rganmoqchiman” post metodi yordamida tagiga chizish orqali chiqaring.

Masala 9. PHP da “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat!” matnini get va post metodi yordamida chiqaring.

Masala 10. PHP da “*O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat!*” matnini post metodi yordamida kursiv ko‘rinishda chiqaring.

Masala 11. PHP da “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat!” matnini post metodi yordamida tagiga chizish orqali chiqaring.

Masala 12. PHP da “**O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat!**” matnini post metodi yordamida qalin ko‘rinishda chiqaring.

Masala 13. PHP da O‘zbekiston Respublikasi madhiyasining birinchi to‘rtligini post metodi yordamida chiqaring.

Masala 14. PHP da Respublikamiz madhiyasining ikkinchi to‘rtligini post metodi yordamida chiqaring.

Masala 15. PHP da Respublikamiz madhiyasining uchinchi to‘rtligini post metodi yordamida chiqaring.

Masala 16. PHP da $ax+b=0$ ifodani kiriting va post metodi yordamida chiqaring.

Masala 17. PHP da $ax+b=0$ ifodani kiriting va post metodi yordamida kursiv ko‘rinishda chiqaring.

Masala 18. PHP da $ax+b=0$ ifodani kiriting va post metodi yordamida tagiga chizish orqali chiqaring.

Masala 19. PHP da $ax+b=0$ ifodani kiriting va post metodi yordamida o‘rtasiga chizish orqali chiqaring.

Masala 20. PHP da **$ax+bx+c=0$** ifodani kiriting post metodi yordamida qalin ko‘rinishda chiqaring.